

**Yuqori sinf o'quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta'lim jarayonlarini
tashkil etish bo'yicha tajriba-sinov o'tkaziladigan umumta'lim maktablarida
bilimni baholash uchun vaqtinchalik**

TARTIB

1-bob. Asosiy qoidalar

1. Mazkur tartib umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha o'zlashtirishini yagona standartlar asosida baholash tartibini belgilaydi.

2. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari bilimini o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlashda formativ va summativ baholash turlaridan foydalaniladi.

3. Mazkur nizomda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

formativ baholash – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi uzluksiz fikr almashish jarayonidir. Fikr-mulohaza og'zaki va yozma, rasmiy va norasmiy bo'lishi mumkin. Bu o'quv maqsadiga erishish uchun o'quvchilarning keyingi harakatlarini moslashtirish uchun o'quvchining yutuqlari to'g'risida ma'lumot olishning uzluksiz jarayonidir;

summativ baholash – o'qishning ma'lum bir davrida (o'quv dasturining bo'lim va boblari, choraklik, o'quv yili oxirida) o'quvchining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida belgilangan kompetensiyalarni egallaganlik darajasini rasmiy baholash jarayoni bo'lib, test, yozma ish, og'zaki suhbat, loyiha ishi, taqdimot ishlari, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, ijodiy ishlar va shu kabi boshqa shakllar yordamida amalga oshiriladi;

Bunda, o'qituvchi summativ baholash natijasida o'quvchining o'zlashtirishidagi ehtimoliy bo'shliqlarni aniqlaydi, ularni o'quvchi bilan birgalikda bartaraf qilish bo'yicha ishlaydi;

bob bo'yicha summativ baholash (keyingi o'rinlarda – **BSB**) – bob, bo'lim yakunida belgilangan kompetensiyalarni egallaganlik darajasini rasmiy baholash jarayoni;

chorak bo'yicha summativ baholash (keyingi o'rinlarda – **CHSB**) – chorak yakuni bo'yicha belgilangan kompetensiyalarni egallaganlik darajasini rasmiy baholash jarayoni;

yillik baho – o'quv yili yakuniga ko'ra o'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichi;

elektron jurnal – o'quvchining darsdagi faolligi haqidagi ma'lumotlar hamda formativ va summativ baholash natijalari qayd qilib boriladigan tizim;

imtiyoz – o'quvchining fan dasturlarini yuqori o'zlashtirish orqali erishgan yutuqlari uchun ma'lum muddat choraklik summativ baholashdan ozod etish.

2-bob. Baholashning turlari va uni tashkil qilish

4. Chorak davomida fanlar uchun belgilangan haftalik soatlardan kelib chiqib, BSB uch martagacha va CHSB bir martagacha (chorak o'rtasida va oxirida) summativ baholash o'tkaziladi.

Bunda, fanlardan choraklik baho chiqariladigan (haftada 0,5 soat o'qitiladigan fanlar uchun o'quv yili yakunida, haftada 1 soat o'qitiladigan fanlar uchun birinchi va ikkinchi yarim yillik) muddat inobatga olinadi.

5. Har bir fan bo'yicha summativ baholash (BSB va CHSB) materiallari Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (keyingi o'rinlarda – Markaz) tomonidan taqdim etiladi.

Baholash jarayoni Markaz tomonidan tuzilgan nazorat materiallari asosida o'tkaziladi.

Baholashning shaffofligini ta'minlash maqsadida fanlar bo'yicha tegishli summativ baholash **barcha parallel sinflar** uchun yagona talablar asosida o'tkaziladi va Markaz tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida tekshiriladi.

Markaz tomonidan taqdim etilgan topshiriqlar metodistlar tomonidan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlariga maxfiyligini ta'minlangan holda yetkaziladi.

Summativ baholash topshiriqlarini chop etish o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari hamda metod birlashma rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

Formativ baholash topshiriqlarini qog'oz formatida chop etish va saqlash talab etilmaydi.

6. Har bir fan bo'yicha chorak davomidagi baholashning soni, muddatlari, shakllari, ularda qo'llaniladigan topshiriqlar namunalari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumotlar chorak boshida o'quvchilarga yetkaziladi.

7. Choraklik summativ baholash jadvali chorak boshlangunga qadar umumiy o'rta ta'lim muassasasining metodik kengashi qarori bilan tasdiqlanadi. Bunda, bitta sinfda bir o'quv kuni mobaynida **3 ta fandani ortiq bo'lmagan** va umumiy vaqti **5 soatdan oshmagan** holda summativ baholash amalga oshirilishini inobatga olish lozim.

8. Summativ baholashni belgilangan muddatlarda amalga oshirish imkonsiz bo'lgan fors-major holatlar yuzaga kelganda umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorining buyrug'iga asosan ularga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

9. Summativ baholash topshiriqlarini bajarish barcha o'quvchilar uchun majburiydir.

10. BSB ishlari fan o'qituvchilari tomonidan tekshiriladi va xolisona va adolatli tekshirilganligini nazorat qilish uchun umumiy o'rta ta'lim muassasasida har bir metod birlashma a'zolaridan iborat **ishchi guruh** tuziladi. Tekshirish yakuniga ko'ra o'quvchilarning to'plagan ballari **bir hafta muddat** ichida elektron jurnalga joylashtiriladi.

Chorak yakunidagi CHSB jarayonining o'tkazilishi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan belgilangan hududiy mas'ullar tomonidan nazorat qilinadi va Markaz tomonidan tekshiriladi.

11. Summativ baholash paytida ichki tartib-qoidani buzgan o'quvchilar baholashdan chetlashtiriladi va bu haqda dalolatnoma tuziladi.

Quyidagi holatlar ichki tartib-qoidani buzish deb hisoblanadi:

boshqa o'quvchilar bilan gaplashish yoki ulardan yordam olish/berish;

ruxsat etilmagan manbalardan, shuningdek, elektron qurilmalardan (telefon, planshet, eshitish moslamalari, aqlli soatlar va shu kabilar) foydalanish;

nazorat materiallarini boshqa o'quvchilarga berish yoki almashtirish.

12. Asosli sabablarga ko'ra summativ baholash jarayonida qatnasha olmagan o'quvchilar uchun baholash jarayoni alohida o'tkazilishiga ruxsat beriladi.

Bunda, qayta topshirish navbatdagi o'quv choragining mazkur fandani birinchi summativ baholashi o'tkaziladigan kuniga qadar tashkil etiladi.

Qayta topshirish natijasida:

uzrli sabablarga ko'ra summativ baholashda qatnashmagan (tibbiy ma'lumotnoma, kasallik varaqasi, yaqin qarindoshlarining vafoti, respublika yoki xalqaro olimpiada va tanlovlarda umumiy o'rta ta'lim muassasasi nomidan ishtirok etgan) o'quvchilarga qayta topshirish baholash mezonlariga ko'ra olgan ballari qo'yiladi;

uzrsiz sabablarga ko'ra summativ baholashda qatnashmagan, jarayonda ichki tartib-qoidalarni buzgani uchun chetlashtirilgan hamda summativ baholashda

30 foizdan past natija qayd etgan o'quvchilarning maksimal bali 30 foizdan oshishi mumkin emas.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan kasalliklar ro'yxati asosida o'quvchilar choraklik summativ baholash hamda yakuniy davlat attestatsiyasidan ozod etilganda o'quvchilarga 30 foiz miqdorida ball qo'yiladi.

13. Elektron jurnalda o'quvchilarning kunlik davomati har bir dars yakunida qayd etib boriladi, mavzular to'ldiriladi va har bir summativ baholash natijalari 100 ballik tizimda kiritiladi.

14. O'quvchining choraklik bahosi (maksimal 100 ball) quyidagicha taqsimlanadi:

50 foizi chorak davomidagi **summativ baholash** nazoratlari uchun;

40 foizi chorak oxirida **summativ baholash** nazorati uchun;

10 foizi chorak davomida **formativ baholash** uchun;

15. Formativ baholash o'qituvchi tomonidan o'quvchining darsdagi faolligi uchun quyidagicha taqsimlanadi:

Izoh	Ball
Darsda ishtiroki: – o'quvchi darsning hamma qismlarida faol, savollariga aniq va to'g'ri javob bersa, guruh va juft bo'lib ishlashda ham faollik darajasi yuqori bo'lsa – 6 ball; – o'quvchi darsning ayrim qismlarida juda faol, savollarga to'g'ri javob beradi, ayrim xatolarga yo'l qo'ysa – 5 ball; – o'quvchi darsda faol lekin savollarga ikkilanib javob bersa, guruh, juft bo'lib ishlaganda faollik darajasi past bo'lsa – 4 ball; – o'quvchi dars davomida faol ishtirok etsa va to'g'ri bo'lmagan fikrlar bildirsa – 3 ball; – o'quvchi dars davomida savollarga noto'g'ri javob bersa, o'quvchilar orasida darsdagi faolligi sezilarli bo'lmasa – 2 ball; – o'quvchining darsda ishtiroki sezilarli bo'lmasa – 1 ball.	6 ball
Uyga vazifalarni bajarishi: – uyga vazifani to'liq va xatolarsiz bajargan bo'lsa – 4 ball; – uyga vazifani bajargan, xato va kamchiliklar mavjud bo'lsa – 3 ball; – uyga vazifani qisman bajargan, xatoliklar ko'p bo'lsa – 2 ball;	4 ball

– uyga vazifani deyarli bajarmagan bo‘lsa – 1 ball; – uyga vazifani bajarmagan bo‘lsa – 0 ball.	
--	--

16. Elektron jurnalga o‘qituvchi tomonidan o‘quvchining darslarda ishtirok etishidan kelib chiqib, quyidagi shakllarda izoh kiritiladi:

Ko‘rsatkichlar	Izoh
O‘quvchi darsda: – faol, savollarga aniq va to‘g‘ri javob bersa, guruh va juft bo‘lib ishlashda ham faollik darajasi yuqori bo‘lsa; – ayrim qismlarida juda faol, savollarga to‘g‘ri javob bersa, ayrim xatolarga yo‘l qo‘ysa. Uyga vazifalarni bajarishi: – uyga vazifani to‘liq va xatolarsiz bajargan bo‘lsa; – uyga vazifani to‘liq bajargan, ba’zi xatoliklar mavjud bo‘lsa.	9-10
O‘quvchi darsda: – faol qatnashsa, fikrlarini qisman to‘g‘ri bayon eta olsa; – faol lekin savollarga ikkilanib javob bersa, guruh, juft bo‘lib ishlaganda faollik darajasi past bo‘lsa; – faol bo‘lishga harakat qilsa, mavzuga doir savollarning ayrimlariga to‘g‘ri javob bersa. Uyga vazifalarni bajarishi: – uyga vazifani bajargan, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa.	6-8
O‘quvchi darsda: – faol ishtirok etsa va to‘g‘ri bo‘lmagan fikrlar bildirsa; – savollarga noto‘g‘ri javob bersa, o‘quvchilar orasida darsdagi faolligi sezilarli bo‘lmasa. Uyga vazifalarni bajarishi: – uyga vazifani qisman bajargan, xatoliklar ko‘p bo‘lsa; – uyga vazifani bajarmagan bo‘lsa.	0-5

17. Summativ ballar belgilanishida yuzaga keladigan fors-major holatlarda o‘quvchining foydasiga qaratiladi.

18. Izohlarga quyidagicha yozma qo‘shimcha izohlar kiritiladi.

9-10 – Hurmatli ota-ona, farzandingizning o‘zlashtirishi yuqori; (yashil rang)

6-8 – Hurmatli ota-ona, farzandingizning o‘zlashtirishi yaxshi, lekin yuqori emas; (sariq rang)

0-5 – Hurmatli ota-ona, farzandingizning o‘zlashtirishi yaxshi emas, nazoratga olmasangiz bu choraklik bahosining pasayishiga olib keladi; (qizil rang)

Farzandingiz **sababsiz/sababli** dars qoldirdi.

19. Mazkur izohlar o‘quvchining choraklik summativ baholash natijalariga ta’sir ko‘rsatmaydi.

20. Davlat imtihonlarida o‘quvchilarga maksimal 30 ball beriladi.

21. O‘quv yili yakuni bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishi nazarda tutilgan fanlar uchun o‘quvchining yillik bahosi quyidagicha hisoblanadi:

4 chorak davomida o‘rtacha arifmetigining 70 foizi;

davlat imtihoniga qolgan 30 foizi beriladi.

22. Yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishi nazarda tutilmagan fanlardan yillik baho choraklik baholarining o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi asosida hisoblanadi.

23. O‘quvchining o‘quv yili davomida to‘plagan ballari quyidagi taqsimot asosida baho shakliga o‘tkaziladi (konvertatsiya qilinadi):

Summativ ballar yig‘indisi	Baho	O‘zlashtirish darajasi
86-100	5	a’lo
66-85	4	yaxshi
30-65	3	qoniqarli
0-29	2	qoniqarsiz

25. Fanni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro sertifikatlarni olgan hamda xalqaro fan olimpiadalarida sovrinli o‘rinlarni egallagan o‘quvchilarga mazkur o‘quv yilining yakuniga qadar, mahalliy fan olimpiadalarida respublika bosqichida sovrinli o‘rinlarni egallagan o‘quvchilarga bir marta choraklik summativ baholashda qatnashmaslik uchun imtiyoz beriladi.

3-bob. Yakuniy qoidalar

26. Mazkur nizomda belgilangan qoidalar bo‘yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.